O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI



ARZON, ISHONCHLI, BARQAROR VA ZAMONAVIY ENERGIYA MANBALARIDAN BARCHA UCHUN UMUMFOYDALANISH IMKONIYATINI TA'MINLASH

Ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan foydalanishni ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsad ekologik toza energiyadan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va atmosferaga chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan. Arzon energiya sanoatning o'sishiga, aholi turmush sharoitining yaxshilanishiga va innovatsiyalarning rivojlanishiga yordam beradi. Toza energetik yechimlarga bosqichma-bosqich o'tish tabiiy resurslar hamda ekotizimlarga tushadigan yuklamani kamaytirgan holda barqaror kelajak uchun uzoq muddatli imkoniyatlarni shakllantiradi.

O'zbekistonda energetika sohasida energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va energiya iste'moli samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar faol amalga oshirilmoqda. Yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda, zamonaviy texnologiyalar asosida "yashil" generatsiya rivojlantirilmoqda. Elektr tarmoqlari modernizatsiya qilinmoqda, sanoat va maishiy sohalarda energiya tejovchi yechimlar joriy etilmoqda, xususiy sheriklik kengaymoqda. Ushbu chora-tadbirlar energetika xavfsizligini oshirish, uglerod izini kamaytirish va mamlakatning ekologik barqaror iqtisodiyotga o'tishdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

100%

**SHAHARLARDA HAM
QISHLOQLARDA HAM
ELEKTROENERGIYADAN**

**FOYDALANISH IMKONIYATIGA EGA
AHOLI ULUSHI**



(2024- yil)



97,8% 97,3% 99,8%

ASOSAN

TOZA YOQILG'I

2020

2022

2024

VA TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANADIGAN AHOLI ULUSHI

**UMUMIY ISHLAB CHIQARILGAN
ELEKTROENERGIYA HAJMIDA
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA
MANBALARI HISOBIDAN
ISHLAB CHIQARILGAN
ELEKTROENERGIYANING
ULUSHI**



7,5%

9,3%

17,2%

2020

2022

2024



0,168

0,139

0,113

ENERGIYA SIG'IMI

2020

2022

2024

(birlamchi energiya sarfini
YAIMga nisbati)



ASOSIY

KAPITALGA KIRITILGAN

INVESTITSIYALARNING

5,3%

7,5%

14,4%

2020

2022


2024

UMUMIY HAJMIDA ENERGETIKAGA

KIRITILGAN INVESTITSIYALARNING ULUSHI

ARZON, ISHONCHLI, BARQAROR VA ZAMONAVIY ENERGIYA MANBALARIDAN BARCHA UCHUN UMUMFOYDALANISH IMKONIYATINI TA'MINLASH

7 ARZON VA
TOZA ENERGIYA



MILLIY BRM 7 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 7.1.1. Elektroenergiyadan foydalanish imkoniyatiga ega aholi ulushi:					
a) jami;	100	100	100	100	100
b) shahar;	100	100	100	100	100
c) qishloq.	100	100	100	100	100
Indikator 7.1.2. Asosan toza yoqilg'i va texnologiyalardan foydalanadigan aholi ulushi.					
	97,8	94,3	97,3	99,6	99,8
Indikator 7.2.1. Umumiy ishlab chiqarilgan elektroenergiya hajmida qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan ishlab chiqarilgan elektroenergiyaning ulushi.					
	7,5	7,0	9,3	9,6	17,2
Indikator 7.3.1. Birlamchi energiya sarfini yalpi ichki mahsulot (YAIM)ga nisbati orqali hisoblanadigan energiya sig'imi. ¹⁾					
	0,168	0,159	0,139	0,126	0,113
Indikator 7.b.1.1. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmida energetika sohasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ulushi.					
	5,3	7,9	7,5	12,2	14,4

¹⁾ 2010-2017- yillar uchun joriy narxlardagi ma'lumotlar MHT-2008 uslubiyatiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan. 2018- yildan boshlab, yillik joriy va konseptual qayta ko'rib chiqishlar amalga oshirilgan

<https://nsdq.stat.uz/uz/goal/10>




SAMARALI BANDLIKNI OSHIRISH HAMDA ERKAKLAR VA XOTIN-QIZLARNI MUNOSIB ISH BILAN TA'MINLASH ASOSIDA BARQAROR VA UMUMQAMROVLI IQTISODIY O'SISHGA KO'MAKLASHISH

Barqaror iqtisodiy o'sish va barcha uchun munosib ish bilan ta'minlash aholi turmush darajasini oshirish va mamlakat raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu maqsad samarali ish o'rinlari yaratish, yoshlar uchun ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Mehnat sharoitlarining xavfsizligi, ish bilan ta'minlanishning teng imkoniyatlari va zamonaviy mehnat bozorini shakllanishi alohida ahamiyatga ega. Munosib ish unumdorlik oshishiga, kambag'allik va ijtimoiy zaiflik kamayishiga xizmat qilib, iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda bandlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kichik biznes va o'zini o'zi band qilishni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmogda, kasb-hunarga o'qitish dasturlari joriy etilmogda, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari modernizatsiya qilinmogda. Hududlarda ish o'rinlari yaratish, erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmogda. Mehnat munosabatlari tizimi takomillashtirilmogda va xodimlarning ijtimoiy himoyasi kuchaytirilmogda, bu esa aholi turmush sifatini oshirish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmogda.


REAL YAIMNING YILLIK O'SISH SUR'ATI

HAR BIR BAND BO'LGANLARGA *




* Alohida yillar bo'yicha ma'lumotlar qayta hisoblangan


AHOI JON BOSHIGA *




ISHSIZLIK DARAJASI



BANDLIK DARAJASI



O'QIMAYOTGAN VA ISHLAMAYOTGAN YOSHlar ULUSHI (16-24 YOSH)




SAMARALI BANDLIKNI OSHIRISH HAMDA ERKAKLAR VA XOTIN-QIZLARNI MUNOSIB ISH BILAN TA'MINLASH ASOSIDA BARQAROR VA UMUMQAMROVLI IQTISODIY O'SISHGA KO'MAKLASHISH

8 MUNOSIB ISH O'RINLARI VA IQTISODIY O'SISH



NORASMIY BANDLIKNING

UMUMIY BANDLIKDAGI ULUSHI



Erkaklar



32,8%
(2024- yil)

qishloq xo'jaligida



60,3%
(2024- yil)

Ayollar




46,8%
(2024- yil)

qishloq xo'jaligidan tashqari tarmoqlarda




30,9%
(2024- yil)

ERKAKLAR VA AYOLLAR O'RTACHA OYLIK ISH HAQI O'RTASIDAGI FARQNING ERKAKLAR O'RTACHA OYLIK ISH HAQIDAGI FOIZLI ULUSHI




XMT KONVENSIYALARIGA MUVOFIQ KOLLEKTIV SHARTNOMALAR TUZGAN KORXONALAR ULUSHI




TIJORAT BANKLARI FILIALLARI SONI

(100 000 nafar katta yoshdagi aholi soniga nisbatan)



BANKOMATLAR SONI

(100 000 nafar katta yoshdagi aholi soniga nisbatan)



BANK/BOSHQA MOLIIYA MUASSASASIDA HISOB RAQAMIGA EGA BO'LGAN YOKI MOBIL MOLIIYAVIY XIZMATLAR OPERATORLARINING XIZMATLARIDAN FOYDALANADIGAN KATTA YOSHDAHI AHOLI (15 VA UNDAN KATTA YOSH) ULUSHI

80,0%

(2024- yil)




SAMARALI BANDLIKNI OSHIRISH HAMDA ERKAKLAR VA XOTIN-QIZLARNI MUNOSIB ISH BILAN TA'MINLASH ASOSIDA BARQAROR VA UMUMQAMROVLI IQTISODIY O'SISHGA KO'MAKLASHISH


ISHLAB CHIQRISHDA SHIKASTLANISH

(100 000 ishlayotganlarga nisbatan)

O'LIMGA OLIB KELADIGAN VA O'LIMGA OLIB
KELMAYDIGAN SHIKASTLANISH (jami)



Jumladan,
O'LIMGA OLIB KELADIGAN SHIKASTLANISH



20,6%

BOLALAR MEHNATI BILAN SHUG'ULLANADIGAN 5-17 YOSHDAGI BOLALAR ULUSHI

2021-2022- yillardagi MICS natijalari



MILLIY BRM 8 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 8.1.1. Aholi jon boshiga real YAIMning yillik o'sish sur'ati. ¹⁾	99,7	106,1	103,9	104,1	104,5
Indikator 8.2.1. Har bir band bo'lganlarga nisbatan real YAIMning yillik o'sish sur'ati. ¹⁾	104,0	105,8	104,8	104,0	104,8
Indikator 8.3.1. Norasmiy bandlikning umumiy bandlikdagi ulushi (tarmoqlar va jinsi bo'yicha):					
a) jami;	42,8	43,8	39,6	39,0	37,9
b) ayollar;	50,4	51,0	47,4	47,1	46,8
c) erkaklar;	37,4	38,7	34,0	33,1	32,8
d) qishloq xo'jaligida;	66,7	69,4	61,7	60,8	60,3
e) qishloq xo'jaligidan tashqari tarmoqlarda.	34,3	35,2	32,3	31,5	30,9
Indikator 8.5.1. Erkaklar va ayollar o'rtacha oylik ish haqi o'rtasidagi farqning erkaklar o'rtacha oylik ish haqidagi foizli ulushi. ²⁾	37,5	36,6	34,0	29,6	29,0
Indikator 8.5.2. Ishsizlik darajasi, jinsi va yoshi bo'yicha:					
a) jami;	10,5	9,6	8,9	6,8	5,5

¹⁾ 2010-2017- yillar uchun joriy narxlardagi ma'lumotlar MHT-2008 uslubiyatiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan. 2018- yildan boshlab, yillik joriy va konseptual qayta ko'rib chiqishlar amalga oshirilgan

²⁾ Kichik korxona va mikrofirmalarsiz

SAMARALI BANDLIKNI OSHIRISH HAMDA ERKAKLAR VA XOTIN-QIZLARNI MUNOSIB ISH BILAN TA'MINLASH ASOSIDA BARQAROR VA UMUMQAMROVLI IQTISODIY O'SISHGA KO'MAKLASHISH

8 MUNOSIB ISH O'RINLARI
VA IQTISODIY O'SISH



	2020	2021	2022	2023	2024
b) ayollar;	14,1	13,3	13,4	10,4	7,4
c) erkaklar;	7,9	6,9	5,4	4,0	3,9
d) 16-30 yosh;	16,4	15,1	14,4	12,1	11,2
e) 30 yoshdan kattalar.	7,6	6,7	5,9	3,9	3,4
Indikator 8.6.1. O'qimayotgan va ishlamayotgan yoshlar (16 yoshdan 24 yoshgacha) ulushi.	30,5	28,6	26,5	22,8	12,4
Indikator 8.7.1. Bolalar mehnati bilan shug'ullanadigan 5 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi va soni, jinsi va yoshi bo'yicha. ¹⁾	-	-	20,6	-	-
Indikator 8.8.1. Ishlab chiqarishda shikastlanish, 100 000 ishlayotganlarga nisbatan jinsi bo'yicha:					
1. O'limga olib keladigan va o'limga olib kelmaydigan shikastlanish, jami:	13,1	15,8	11,0	9,4	13,6
a) ayollar;	4,6	7,0	2,0	2,5	3,2
b) erkaklar.	15,8	18,8	17,4	16,2	23,2
2. Jumladan, o'limga olib keladigan shikastlanish:	2,9	2,7	3,1	3,0	5,0
a) ayollar;	0,7	0,3	0,3	0,4	0,5
b) erkaklar.	3,6	3,5	5,0	5,5	9,0
Indikator 8.8.2.1. XMT konvensiyalariga muvofiq kollektiv shartnomalar tuzgan korxonalar ulushi.	99,6	99,7	99,8	99,9	99,9
Indikator 8.9.1. YAIMdagi turizmning foizdagi bevosita ulushi. ²⁾	0,5	1,0	1,6	2,7	-
Indikator 8.10.1. a) 100 000 nafar katta yoshdagi aholi soniga nisbatan tijorat banklari filiallari soni;	42	48	51	54	55
b) 100 000 nafar katta yoshdagi aholi soniga nisbatan bankomatlar soni.	48	52	81	104	115
Indikator 8.10.2. Bank yoki boshqa moliya muassasasida hisob raqamiga ega bo'lgan yoki mobil moliyaviy xizmatlar operatorlarining xizmatlaridan foydalanadigan katta yoshdagi aholi (15 va undan katta yoshdagi aholi) ulushi.	-	63,0	70,0	78,0	80,0

¹⁾ MICS kuzatuvi natijalari

²⁾ 2010-2017- yillar uchun joriy narxlardagi ma'lumotlar MHT-2008 uslubi yotiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan. 2018- yildan boshlab, yillik joriy va konseptual qayta ko'rib chiqishlar amalga oshirilgan

<https://nsdq.stat.uz/uz/goal/11>


BARQAROR INFRATUZILMANI YARATISH, UMUMQAMROVLI VA BARQAROR SANOATLASHUV VA INNOVATSIYALARGA KO'MAKLASHISH

Barqaror infratuzilmalarni rivojlantirish, inklyuziv sanoatlashuv va innovatsiyalar iqtisodiy o'sish hamda mamlakat raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Ushbu maqsad zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-texnik salohiyatni kengaytirishga qaratilgan. Transport, energetika va raqamli infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa hududlar integratsiyasi, eksportning o'sishi va mehnat unumdorligini oshishiga xizmat qiladi. Innovatsiyalar bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tishni ta'minlaydi va uzoq muddatli rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi.

O'zbekistonda jadal sanoatlashuv va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar faol amalga oshirilmoqda. Korxonalar modernizatsiya qilinmoqda, raqamli va "yashil" texnologiyalar joriy etilmoqda, texnoparklar va innovatsion klasterlar rivojlantirilmoqda. Davlat ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va xususiy sektor bilan hamkorlikni rag'batlantirmoqda. Transport va logistika tarmoqlarini rivojlantirish, sanoat zonalarini barpo etish va muhandislik kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda, bu esa ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash va iqtisodiyot barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

QAYTA ISHLASH SANOATIDA YARATILGAN QO'SHILGAN QIYMAT:

YAIMGA NISBATI



AHOLI JON BOSHIGA HAJMI
(mln so'm)



UMUMIY BANDLIKDA QAYTA ISHLASH SANOATIDAGI BANDLIKNING ULUSHI



ayollar


11,9%




erkaklar

10,1%

YAIMGA NISBATAN ITTKIGA XARAJATLAR



BIR MILLION AHOLIGA TO'G'RI KELADIGAN TADQIQOTCHILAR SONI (to'liq bandlik ekvivalentida)




BARQAROR INFRATUZILMANI YARATISH, UMUMQAMROVLI VA BARQAROR SANOATLASHUV VA INNOVATSIYALARGA KO'MAKLASHISH



YO'LOVCHI VA YUK TASHISH HAJMI TRANSPORT TURLARI BO'YICHA:


YO'LOVCHI TASHISH AYLANMASI

(mlrd yo'lovchi-km)



YUK TASHISH AYLANMASI

(mlrd tn-km)




QO'SHILGAN QIYMATNING

UMUMIY HAJMIDA

O'RTA VA **YUQORI TEXNOLOGIK**

TARMOQLAR MAHSULOTINI

QO'SHILGAN QIYMATINING ULUSHI




UYALI ALOQA TARMOQLARI


BILAN QAMRAB OLINGAN AHOLI ULUSHI

TEXNOLOGIYALAR BO'YICHA


(2024- yil)



**KICHIK KORXONALAR
VA MIKROFIRMALAR
QO'SHILGAN QIYMATINING
JAMI SANOATNING YALPI
QO'SHILGAN QIYMATDAGI ULUSHI**



**KREDIT YOKI KREDIT LINIYASIGA
EGA BO'LGAN KICHIK KORXONALAR
VA MIKROFIRMALAR ULUSHI**



MILLIY BRM 9 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 9.1.2. Transport turlari bo'yicha yo'lovchi va yuk tashish hajmi:					
1. Yo'lovchi tashish aylanmasi, mlrd yo'lovchi-km:					
a) jami;	118,3	137,0	146,5	153,5	162,6
b) avtomobil transporti;	113,2	127,9	131,0	134,5	140,0
c) temir yo'l transporti;	1,8	3,1	3,6	3,9	4,1
d) havo transporti;	3,0	5,3	10,9	13,8	16,5
e) shahar elektr transporti;	0,3	0,8	1,0	1,3	2,0
2. Yuk tashish aylanmasi, mlrd tn-km:					
a) jami;	66,9	74,8	75,5	77,6	80,9
b) avtomobil transporti;	16,2	19,1	20,5	22,3	24,4
c) temir yo'l transporti;	23,6	24,6	25,0	27,1	27,5
d) havo transporti, mln tn-km;	219,0	303,5	322,5	226,3	268,9
e) quvur yo'li transporti.	26,8	30,8	29,7	28,0	28,8

Indikator 9.2.1. Qayta ishlash sanoatida yaratilgan qo'shilgan qiymatni YAIMga foizdagi nisbati va aholi jon boshiga hajmi: ¹⁾

a) YAIMga nisbati, foizda;	21,9	21,7	20,5	20,2	20,8
b) aholi jon boshiga hajmi, ming so'm.	4 223,7	5 036,9	5 636,8	6 663,3	8 241,7

¹⁾ 2010-2017- yillar uchun joriy narxlardagi ma'lumotlar MHT-2008 uslubiyatiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan. 2018- yildan boshlab, yillik joriy va konseptual qayta ko'rib chiqishlar amalga oshirilgan

BARQAROR INFRATUZILMANI YARATISH, UMUMQAMROVLI VA BARQAROR SANOATLASHUV VA INNOVATSIYALARGA KO'MAKLASHISH



	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 9.2.2. Umumiy bandlikda qayta ishlash sanoatidagi bandlikning ulushi, foiz hisobida: ¹⁾	12,1	12,1	11,9	11,9	10,9
a) ayollar;	13,5	13,5	13,1	13,3	11,9
b) erkaklar.	11,1	11,2	11,1	10,8	10,1
Indikator 9.3.1.1. Kichik korxonalar va mikrofirmalar qo'shilgan qiymatining jami sanoatning yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi (foizda).	17,0	17,6	17,0	18,1	20,6
Indikator 9.3.2. Kredit yoki kredit liniyasiga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi.	22,2	22,3	22,7	24,7	44,3
Indikator 9.4.1. Qo'shilgan qiymatning bir birligiga to'g'ri keladigan CO ₂ chiqindilari. ²⁾	0,39	0,41	0,37	-	-
Indikator 9.5.1. ITTKlga xarajatlar YAIMga nisbatan foizda. ³⁾	0,12	0,11	0,14	0,11	0,10
Indikator 9.5.2. Bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar (to'liq bandlik ekvivalentida) soni.	414	509	528	495	476
Indikator 9.b.1. Qo'shilgan qiymatning umumiy hajmida o'rta va yuqori texnologik tarmoqlar mahsulotini qo'shilgan qiymatining ulushi. ³⁾	15,2	15,3	18,1	18,4	16,0
Indikator 9.c.1. Uyali aloqa tarmoqlari bilan qamrab olingan aholi ulushi, texnologiyalar bo'yicha:					
a) 2G texnologiyasi bo'yicha;	98,0	99,0	99,0	99,0	99,5
b) 3G/4G texnologiyasi bo'yicha;	90,0	95,0	98,0	98,0	-
c) 3G texnologiyasi bo'yicha;	-	-	-	-	96,0
d) 4G texnologiyasi bo'yicha;	-	-	-	-	97,0
e) 5G texnologiyasi bo'yicha.	5,0	8,0	12,0	17,0	18,0

¹⁾ IFUT bo'yicha

²⁾ Qo'shilgan qiymatning bir birligiga to'g'ri keladigan CO₂ chiqindilari (1990–2022- yillar uchun yangilangan inventarizatsiya ma'lumotlari asosida issiqxona gazlari chiqindilari hisob-kitoblari (BTR, 2024) 2006- yilgi IHKK qo'llanmasiga muvofiq amalga oshirildi)

³⁾ 2010-2017- yillar uchun joriy narxlardagi ma'lumotlar MHT-2008 uslubiyatiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan. 2018- yildan boshlab, yillik joriy va konseptual qayta ko'rib chiqishlar amalga oshirilgan

<https://nsdq.stat.uz/uz/goal/12>



MAMLAKAT ICHIDA TENGSIKLIKNI UNING BARCHA KO'RINISHLARIDA QISQARTIRISH

Mamlakatlar ichidagi va ular o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish mustahkam rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu maqsad jinsi, yoshi, yashash joyi yoki daromad darajasidan qat'i nazar, barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Resurslarni adolatli taqsimlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va ish bilan ta'minlash imkoniyatlari, shuningdek samarali ijtimoiy himoya tizimi muhim o'rin tutadi. Tengsizlikni kamaytirish jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga, ijtimoiy birdamlikka va yanada adolatli hamda barqaror jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda tengsizlikni qisqartirish siyosatini amalga oshirish milliy taraqqiyot strategiyasida ustuvor o'rinlardan birini egallaydi. Manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda, minimal daromad va ish haqi miqdorlari ko'tarilmoqda. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, hududlarni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlar uchun teng sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat ta'lim, tibbiy va moliyaviy xizmatlardan inklyuziv foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni izchil amalga oshirmoqda, bu esa ijtimoiy adolat va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

AHOLI JON BOSHIGA UY XO'JALIKLARI DAROMADLARINING O'SISH SUR'ATI

(2024- yil)


AHOLINING ENG KAMBAG'AL
40 FOIZI O'RTASIDA

124,3%

JAMI AHOLI
O'RTASIDA

116,1%

ISHCHINING ISHGA JOYLASHISH XARAJATLARINING BELGILANGAN MAMLAKATDA UNING OYLIK DAROMADIGA NISBATAN ULUSHI



11,9%

MAMLAKATDAN
CHIQUIB KETISHDA
IXTIYORIY

RAVISHDA RO'YXATDAN O'TGAN
VA ISHCHILARNI UYUSHGAN
HOLDA ISHGA QABUL QILISH
YO'LI ORQALI KETGAN MEHNAT
MIGRANTLARINING ULUSHI
(ularning umumiy sonidan)



JINI KOEFFITSIENTI (AHOLI

DAROMADLARINING
NOTEKIS TAQSIMLANISHI)
(2024- yil)

0,286

9,8%

O'RTACHA DAROMADNING
50 FOIZIDAN PAST
DAROMADLI ODAMLAR
ULUSHI
(2024- yil)

MILLIY BRM 10 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 10.1.1. Aholining eng kambag'al 40 foizi va umumiy aholi o'rtasida jon boshiga uy xo'jaliklari xarajatlari yoki daromadlarining o'sish sur'ati (foizda).					
a) aholining eng kambag'al 40 foizi o'rtasida aholi jon boshiga daromadlarning o'sish sur'ati;	114,9	122,4	123,4	124,7	124,3
b) jami aholi o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning o'sish sur'ati.	110,9	122,4	119,1	113,0	116,1
Indikator 10.2.1. O'rtacha daromadning 50 foizidan past daromadli odamlar ulushi, yoshi va jinsi bo'yicha.					
	10,0	10,7	9,0	9,6	9,8
Indikator 10.3.1. So'nggi 12 oy ichida shaxsan o'zlari duch kelgan kamsitish hollari yoki insonning xalqaro huquqlari asosida taqiqlangan ta'qibga uchraganligi to'g'risida xabar bergan odamlar ulushi. ¹⁾					
	-	-	9,5	-	-
Indikator 10.4.1. Yollanma ishchilar ish haqining YAIMga nisbatan foizdagi ulushi. ²⁾					
	22,3	22,8	23,5	24,3	-
Indikator 10.7.1. Ishchining ishga joylashish xarajatlarning belgilangan mamlakatda uning oylik daromadiga nisbatan foizdagi ulushi:					
Rossiya;	22,0	24,9	23,3	20,8	19,7
Qozog'iston;	5,0	11,7	7,9	8,5	7,9
Turkiya;	8,3	14,6	12,9	10,6	9,5
Janubiy Koreya.	8,8	11,7	7,3	6,4	6,1
Indikator 10.7.2. Mehnat migrantlarining umumiy sonida, mamlakatdan chiqib ketishda ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan o'tgan va ishchilarni tashkillashtirilgan ishga qabul qilish bo'yicha chiqib ketgan mehnat migrantlarining ulushi (foizda).					
	8,2	9,8	10,6	9,2	11,9

¹⁾ MICS kuzatuv natijalari bo'yicha 15-49 yoshdagi ayollar hisobga olingan

²⁾ 2010-2017- yillar uchun joriy narxlardagi ma'lumotlar MHT-2008 uslubiyatiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan. 2018- yildan boshlab, yillik joriy va konseptual qayta ko'rib chiqishlar amalga oshirilgan

SHAHARLAR VA AHOLI YASHASH PUNKTLARINING OCHIQLIGI, XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK BARQARORLIGINI TA'MINLASH


Barqaror, xavfsiz va inklyuziv shaharlarni barpo etish barqaror rivojlanishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsad shahar muhitining sifatini oshirish, hududlardan oqilona foydalanish va barcha uchun qulay infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan. Uy-joy, transport va kommunal xizmatlar bilan ta'minlash, shuningdek aholi punktlarining tabiiy va texnogen xatarlarga nisbatan chidamliligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Shaharlarning barqarorlik tamoyillari asosida rivojlanishi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va aholi turmush sharoitining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda barqaror shahar va aholi punktlarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Muhandislik kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilish, jamoat transportini rivojlantirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Arzon uy-joylar barpo etish, "aqlli shaharlar" va "yashil hududlar" loyihalarini joriy etish ishlari faol amalga oshirilmoqda. Energiyani tejash, chiqindilarni boshqarish va ekologik xavfsizlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar zamonaviy barqarorlik standartlariga javob beradigan qulay va xavfsiz shahar muhitini yaratishga qaratilgan.

AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLANGANLIGI

(bir kishiga kv.m.)

18,1%
2020- yilga nisbatan



shahar joylarda



qishloq joylarda



90,5%

**JAMOAT TRANSPORTIDAN
QULAY FOYDALANISH
IMKONIYATIGA EGA
BO'LGAN AHOLI ULUSHI
(2024- yil)**



Ayollar

90,4%



Erkaklar

90,6%



Nogironligi bo'lgan shaxslar

89,1%

**BEVOSITA OFATLAR NATIJASIDA HALOK BO'LGANLAR,
BEDARAK YO'QOLGANLAR VA JABRLANGANLARNING SONI
(100 000 aholiga nisbatan, 2024- yilda)**

0,003



SHAHARLAR VA AHOLI YASHASH PUNKTLARINING OCHIQLIGI, XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK BARQARORLIGINI TA'MINLASH

11 BARQAROR SHAHARLAR
VA AHOLI YASHASH
JOYLARI

75,0%

NAZORAT QILINADIGAN
OBYEKTlarda YIG'ILADIGAN
VA UTILIZATSIYA


QILINADIGAN QATTIQ KOMMUNAL-
MAISHIY CHIQINDILARNING ULUSHI,
ULARNING UMUMIY HAJMIDAN



(2024- yil)

TURAR-JOY QURILISHI VA AHOLINING O'SISH SUR'ATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO NISBAT


Samarqand	0,737
Jizzax	0,961
Buxoro	0,991
Surxondaryo	0,993
Qoraqalpog'iston Resp.	1,004
Namangan	1,006
Qashqadaryo	1,014
Toshkent	1,020
Navoiy	1,025
Xorazm	1,078
Farg'ona	1,095
Toshkent sh.	1,114
Andijon	1,126
Sirdaryo	1,861



SHAHARLAR AHOLISI JON BOSHIGA

MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI MAYDONI

(kv. m.)



MILLIY BRM 11 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 11.1.1.1. Aholini uy-joy bilan ta'minlanganligi (bir kishiga kv.m.):	16,0	18,2	18,5	19,0	18,9
a) shahar joylarda;	16,1	18,0	18,2	19,1	19,1
b) qishloq joylarda.	16,0	18,5	18,7	19,0	18,7
Indikator 11.2.1. Jamoat transportidan qulay foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan aholi ulushi, jinsi, yoshi va nogironligi belgilari bo'yicha: ¹⁾					
a) jami;	86,4	-	87,4	86,9	90,5
b) ayollar;	86,9	-	87,6	87,1	90,4
c) erkaklar;	86,0	-	87,1	86,8	90,6
d) nogironligi bo'lgan shaxslar.	-	-	86,4	84,4	89,1
Indikator 11.3.1. Turar-joy qurilishi va aholining o'sish sur'atlari o'rtasidagi o'zaro nisbat.	0,872	1,070	1,019	0,99	1,03
Indikator 11.5.1. Bevosita ofatlar natijasida halok bo'lganlar, bedarak yo'qolganlar va jabrlanganlarning soni, 100 000 aholiga nisbatan.	0,11	0,048	0,047	0,01	0,003
Indikator 11.5.2.1. Ofatlar natijasida bevosita iqtisodiy yo'qotishlar, YAIMga nisbatan foizda.	0,024	0,000	0,005	0,00	0,00
Indikator 11.6.1. Qattiq maishiy chiqindilarning umumiy hajmidagi nazorat qilinadigan obyektlarda yig'iladigan va utilitatsiya qilinadigan qattiq kommunal-maishiy chiqindilarning ulushi, shaharlar kesimida.	-	-	70,1	75,0	75,0
Indikator 11.7.1.1. Shaharlar aholisi jon boshiga madaniyat va istirohat bog'lari maydoni.	1,00	0,71	0,67	0,73	0,72

¹⁾ Ushbu ko'rsatkich uy xo'jaligi kuzatuvlari savolnomalari asosida shakllantiriladi. Savolnomalarda transportdan qulay foydalanish imkoniyati to'g'risidagi savollar takomillashtirilayotganligi sababli 2021-yil uchun ko'rsatkich ma'lumotlari shakllanish jarayonida (hisoblanmagan)

<https://nsdg.stat.uz/uz/goal/14>

ISTE'MOL VA ISHLAB CHIQUARISHNING OQILONA MODELLARIGA O'TISHNI TA'MINLASH

12 MAS'ULIYATLI
ISTE'MOL VA
ISHLAB CHIQUARISH




Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellarini ta'minlash tabiiy resurslarni tejash va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan. Ushbu maqsad xomashyo va energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish uglerod izini kamaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishga, shuningdek, atrof-muhit va mamlakatning tabiiy resurslariga mas'uliyatli munosabatda bo'lishning barqaror madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'zbekistonda iste'mol va ishlab chiqarishning barqaror modellarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Resurslarni tejaydigan va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda, korxonalarning xalqaro ekologik standartlarga o'tishi qo'llab-quvvatlanmoqda. Chiqindilar muomalasi ustidan nazorat kuchaytirilmoqda, materiallarni qayta ishlash va ulardan qayta foydalanish tizimlari rivojlanmoqda. Biznes va aholi o'rtasida ekologik javobgarlikni oshirishga qaratilgan tashabbuslar faol targ'ib etilmoqda, bu esa barqaror iqtisodiyotni shakllantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qilmoqda.

XAVFLILIK DARAJASI 1-3 SINFDAGI


ISHLAB CHIQUARISHNING ZAHARLI CHIQUINDILARINI SHAKLLANISHI

(aholi jon boshiga, kg)




UMUMIY HOSIL BO'LGAN

XAVFLILIK DARAJASI 1-3 SINFDAGI ISHLAB CHIQUARISH CHIQUINDILARI HAJMIDAGI ZARARSIZLANTIRILGAN XAVFLILIK DARAJASI 1-3 SINFDAGI ISHLAB CHIQUARISH CHIQUINDILARINING ULUSHI




QAYTA ISHLANGAN MATERIALLARNING OG'IRLIGI

(ming tonna)




ATMOSFERAGA CHIQUARILGAN IFLOSLANTIRUVCHI MODDALAR

(ming tonna)



TURISTIK XIZMATLARNING EKSPORTDAGI ULUSHI



**XAVFLI VA BOSHQA KIMYOVIY MODDALAR
HAMDA CHIQINDILARGA OID
HAR BIR XALQARO KO'P TOMONLAMA
EKOLOGIK BITIMLARNING TALABLARIGA
MUVOFIQ MA'LUMOTLARNI TAQDIM
ETISH BO'YICHA MAJBURIYAT
VA VAZIFALARI BAJARILAYOTGAN
KELISHUVLAR ULUSHI**

(2024- yil)

46,7%

MILLIY BRM 12 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 12.4.1. Xavfli va boshqa kimyoviy moddalar va chiqindilar bo'yicha xalqaro ko'p tomonlama ekologik bitimlarning mavjudligi hamda ularga asosan har bir kelishuv talablariga muvofiq ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha majburiyatlar bajarilishi.	44,4	44,4	46,7	46,7	46,7
Indikator 12.4.2.1. Aholi jon boshiga xavflilik darajasi 1-3 sinfdagi ishlab chiqarishning zaharli chiqindilarini shakllanishi.	10,6	8,5	0,8	0,9	0,6
Indikator 12.4.2.2. Umumiy hosil bo'lgan xavflilik darajasi 1-3 sinfdagi ishlab chiqarish chiqindilari hajmidagi zararsizlantirilgan 1-3 sinfdagi ishlab chiqarish chiqindilarining ulushi.	0,2	0,3	7,6	2,7	17,0
Indikator 12.5.1. Chiqindilarni qayta ishlash milliy darajasi, qayta ishlangan materiallarning og'irligi, tonnada.					
a) chiqindilarni qayta ishlash darajasi;	-	-	-	-	5,2
b) qayta ishlangan materiallarning og'irligi, tonnada.	1 025,9	1 698,2	2 200,0	2 619,0	766,0
Indikator 12.b.1.1. Turistik xizmatlarning eksportdagi ulushi (foizda).	1,7	2,5	8,3	8,6	12,9

<https://nsdq.stat.uz/uz/goal/15>

IQLIM O'ZGARISHI VA UNING OQIBATLARIGA QARSHI KURASH BO'YICHA TEZKOR CHORALARNI QABUL QILISH


13 IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASHISH



Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha shoshilinch choralar ko'rish barqaror rivojlanishning global ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsad issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, ekotizimlarning barqarorligini oshirish va o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga moslashishga qaratilgan. Iqlim o'zgarishi oqibatlari qishloq xo'jaligi, suv resurslari, aholi salomatligi va umuman olganda iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatmoqda. Kam uglerodli texnologiyalarni rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish iqlim xavflarini yumshatish va ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi.


O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga qarshi kurash milliy ekologik siyosatning muhim yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat iqlim o'zgarishiga moslashish mexanizmlarini joriy etmoqda, jumladan irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va barqaror qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash. "Yashil" iqtisodiyot, o'rmonlarni tiklash va bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha tashabbuslar faol rivojlantirilmoqda, shuningdek ekologiya va iqlim sohasida xalqaro hamkorlik kengaymoqda.

ISSIQXONA GAZLARI CHIQINDILARI *



* Manba: EDGAR – Emissions Database for Global Atmospheric Research

ISSIQXONA GAZLARI CHIQINDILARINI KAMAYTIRISH, IQLIM BARQARORLIGI DARAJASINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORALAR VA HARAKATLAR BO'YICHA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI HAMDA KOMPLEKS DASTURLARINING MAVJUDLIGI



MILLIY BRM 13 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 13.2.1.1. Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, iqlim barqarorligi darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar va harakatlar bo'yicha rivojlanish strategiyalari hamda kompleks dasturlarining mavjudligi.	2	15	8	9	10

<https://nsdg.stat.uz/uz/goal/16>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash barqaror rivojlanishni ta'minlash, bioxilma-xillikni muhofaza qilish hamda ekologik muvozanatni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqsad yer, o'rmon va suv resurslaridan oqilona foydalanish, cho'llanish va yerlarning yemirilishiga qarshi kurashishga qaratilgan. Tabiiy ekotizimlarni samarali boshqarish bioxilma-xillikni saqlashga, iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirishga va aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Resurslardan barqaror foydalanish ekologik va oziq-ovqat xavfsizligining muhim asosidir.

O'zbekistonda quruqlik ekotizimlarini muhofaza qilish va tabiiy hududlarni tiklash davlat ekologiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Cho'llanishga qarshi kurashish va yemirilgan yerlarni tiklash bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda, o'rmonlarni tiklash, jumladan, Orol dengizi tubini ko'kalamzorlashtirish loyihasi jadal rivojlanmoqda. Yangi maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tashkil etilmoqda, o'simlik va hayvonot dunyosining noyob turlarini himoya qilish choralari ko'rilmoqda. Yer resurslaridan barqaror foydalanish tamoyillarini joriy etish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

O'RMON XO'JALIGINI TO'G'RI YURITISHGA O'TISH JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR

(2024- yil)



O'RMONLARNING
HAQIQIY MAYDONI

244

O'ZGARISHI



O'RMONLARDAGI YER

USTI BIOMASSASINING ZAXIRALARI (ming m³)

83372,1



51,6%*



QONUN BILAN
QO'RQLANADIGAN
JOYLARDA JOYLASHGAN
O'RMON MAYDONLARI ULUSHI

96,0%



0,1 f.p.*



UZOQ MUDDATLI
O'RMON XO'JALIGINI BOSHQARISH
REJASI ISHLAB CHIQLIGAN O'RMON
MAYDONLARINING ULUSHI


99,5%



7,4 f.p.*

* 2020- yilga nisbatan o'zgarishlar

UMUMIY QURUQLIK MAYDONIGA
O'RMONLAR MAYDONINING
NISBATI



QURUQLIK EKOTIZIMLARINI HIMOYALASH VA TIKLASH, ULARDAN OQILONA FOYDALANISHGA KO'MAKLASHISH, O'RMONLARDAN OQILONA FOYDALANISH, CHO'LLANISHGA QARSHI KURASHISH, YERLARNING YEMIRILISHINI TO'XTATISH VA ORTGA QAYTARISH, BIOXILMA-XILLIKNING YO'QOLIB KETISHI JARAYONINI TO'XTATISH



MILLIY QIZIL KITOBGA KIRITILGAN BIOLOGIK TURLAR SONI



206ta HAYVONLAR TURLARI



314ta O'SIMLIKLAR TURLARI



QIZIL KITOB INDEKSI
(QIZIL RO'YXAT INDEKSI *)

0,96



* Manba: IUCN Global Species Programme Red List Unit (<https://www.iucnredlist.org/search>)

SAVDO QILINADIGAN TURLAR ORASIDA BRAKONERLIK YOKI NOQONUNIY SAVDO OBYEKTI BO'LGAN YOVVOYI HAYVONLARNING ULUSHI



O'ZBEKISTONDA XORIJIY BEGONA TURLARNING KIRIB KELISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI YOKI ULARNING SONINI TARTIBGA SOLUVCHI MILLIY QONUNCHILIK MAVJUD VA ZARUR RESURSLAR AJRATILMOQDA


QURUQLIK EKOTIZIMLARINI HIMOYALASH VA TIKLASH, ULARDAN OQILONA FOYDALANISHGA KO'MAKLASHISH, O'RMONLARDAN OQILONA FOYDALANISH, CHO'LLANISHGA QARSHI KURASHISH, YERLARNING YEMIRILISHINI TO'XTATISH VA ORTGA QAYTARISH, BIOXILMA-XILLIKNING YO'QOLIB KETISHI JARAYONINI TO'XTATISH

TOG'LARNING O'SIMLIKLAR
BILAN QOPLANGAN MAYDONI
(2024- yil)

INDEKSI

36,7%

BIOLOGIK XILMA-XILLIK VA
EKOTIZIMLARNING AHAMIYATI
VA SAQLANISHINI HISOBGA
OLADIGAN MILLIY, TARMOQ,
SEKTORAL VA MINTAQAVIY
STRATEGIYALAR VA
DASTURLARNING SONI



8,8%

BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI VA EKOTIZIMLARNI SAQLASH VA ULARDAN
OQILONA FOYDALANISH UCHUN AJRATILADIGAN DAVLAT XARAJATLARINING
DAVLAT BYUDJETI UMUMIY XARAJATLARIDAGI ULUSHI
(2024- yil)

MILLIY BRM 15 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 15.1.1. Umumiy quruqlik maydoniga o'rmonlar maydonining foizdagi nisbati.	8,7	8,7	8,7	10,6	10,7
Indikator 15.2.1. O'rmon xo'jaligini to'g'ri yuritishga o'tish jarayonidagi o'zgarishlar:					
a) o'rmonning haqiqiy maydoni o'zgarishi;	244,0	244,0	244,0	244,0	244,0
b) o'rmonlardagi yer usti biomassasining zaxiralari, ming m ³ ;	55 000,0	60 250,0	68 991,7	77 664,8	83 372,1

	2020	2021	2022	2023	2024
c) qonun bilan qo'riqlanadigan joylarda joylashgan o'rmon maydonlari ulushi, foizda;	95,9	95,9	95,9	96,0	96,0
d) uzoq muddatli o'rmon xo'jaligini boshqarish rejasi ishlab chiqilgan o'rmon maydonlarining ulushi, foizda.	92,1	98,9	98,9	99,0	99,5
Indikator 15.4.2. Tog'larning o'simliklar bilan qoplangan maydonining indeksi.	36,0	36,0	36,0	36,0	36,7
Indikator 15.5.1.1. Qizil kitob indeksi. ¹⁾	0,96	0,96	0,96	0,96	0,96
Indikator 15.5.1.2. Milliy qizil kitobga kiritilgan biologik turlar soni:					
a) hayvonlar;	206	206	206	206	206
b) o'simliklar.	314	314	314	314	314
Indikator 15.7.1. Savdo qilinadigan turlar orasida brakonerlik yoki noqonuniy savdo obyekti bo'lgan yovvoyi hayvonlarning ulushi.	3,1	2	0,8	0,5	0,5
Indikator 15.8.1. Xorijiy begona turlarning kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi yoki ularning sonini tartibga soluvchi milliy qonunchilikning mavjudligi va zarur resurslarni ajratilishi.	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud
Indikator 15.9.1.1. Biologik xilma-xillik va ekotizimlarning ahamiyati va saqlanishini hisobga oladigan milliy, tarmoq, sektoral va mintaqaviy strategiyalar va dasturlarning soni.	7	7	7	13	19
Indikator 15.a.1.1. Biologik xilma-xillikni va ekotizimlarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish uchun ajratiladigan davlat xarajatlarining davlat budjeti umumiy xarajatlardagi ulushi (foizda).	-	4,1	4,2	13,9	8,8

¹⁾ Qizil ro'yxat indeksi. Ma'lumot manbai: IUCN Global Species Programme Red List Unit veb-sayti (<https://www.iucnredlist.org/search>)

<https://nsdq.stat.uz/uz/goal/17>

Tinchlik, adolat va samarali institutlarni ta'minlash mustahkam rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning poydevori hisoblanadi. Ushbu maqsad qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat boshqaruvi shaffofligini oshirish va fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Kuchli va mas'uliyatli davlat institutlari barcha uchun teng imkoniyatlar va har bir insonning huquqlariga rioya etilishi ta'minlanadigan xavfsiz jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda tinchlik, adolat va davlat institutlari samaradorligini mustahkamlash islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ochiq va hisobdor boshqaruv mexanizmlari joriy etilmoqda, sud tizimi takomillashtirilmoqda, aholining huquqiy madaniyati oshirilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolar huquqlarini himoya qilish choralari kuchaytirilmoqda, jamoatchilikning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Davlat xizmatlarining shaffofligi va ochiqligini ta'minlaydigan elektron hukumat tizimi jadal rivojlanmoqda, bu esa ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

90,0%


QORONG'U TUSHGANDAN KEYIN YASHASH JOYIDAGI HUDUDDA YOLG'IZ YURGANDA O'ZINI XAVFSIZ HIS

QILADIGAN 15-49 YOSHDAGI AYOLLAR ULUSHI

2021-2022- yillardagi MICS natijalari




DAVLAT MUASSASALARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN AYRIM TOIFADAGI FUQAROLARNING ULUSHI



KORRUPSIYANI QABUL QILISH INDEKSI BO'YICHA DUNYO DAVLATLARI REYTINGI (CORRUPTION PERCEPTIONS INDEX) *

(2024- yil)



* Transparency International

MILLIY BRM 16 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 16.1.4. Qorong'u tushgandan keyin yashash joyidagi hududda yolg'iz yurganda o'zini xavfsiz his qiladigan aholining ulushi. ¹⁾	-	-	90,0	-	-
Indikator 16.2.1. So'nggi bir oy mobaynida qaramog'ida 1-17 yoshdagi bolalar bo'lgan shaxslar tomonidan jismoniy jazo va/yoki ruhiy tajovuzga duchor bo'lgan bolalar ulushi. ²⁾					
a) barcha bolalar;	-	-	62,2	-	-
b) qiz bolalar;	-	-	60,4	-	-
c) o'g'il bolalar.	-	-	63,9	-	-
Indikator 16.6.1. Hukumat birlamchi xarajatlarning dastlabki tasdiqlangan budjetga foizdagi nisbati, sektorlar kesimida (byudjet tasnifi kodlari yoki shunga o'xshash toifalar bo'yicha).	109,5	99,2	110,6	109,6	99,4
Indikator 16.7.1.1. Davlat muassasalarida faoliyat yuritayotgan ayrim toifadagi (ayollar, mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagi shaxslar, yoshlar) fuqarolarning ulushi:					
a) ayollar;	60,8	60,6	61,4	61,1	61,1
b) mehnatga layoqatli yoshdan katta shaxslar;	3,0	2,9	3,4	3,4	3,5
c) yoshlar (30 yoshgacha).	27,1	24,5	22,3	21,5	20,9
Indikator 16.9.1. Fuqarolik organlarida tug'ilishi ro'yxatga olingan besh yoshgacha bo'lgan bolalarning ulushi, yoshi bo'yicha. ³⁾	-	-	100	-	-
Indikator 16.10.2. Fuqarolarning axborot olish kafolatlarini ta'minlovchi normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati.	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud
Indikator 16.a.1. Parij prinsiplariga muvofiq, xalqaro mexanizmlarda belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazilgan inson huquqlari milliy institutlari (Global alyans, inson huquqlari milliy institutlarining Yevropa va Osiyo tarmoqlari va hokazolar) mavjudligi.	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud

¹⁾ MICS kuzatuv natijalari bo'yicha 15-49 yoshdagi ayollar hisobga olingan

²⁾ MICS kuzatuv natijalari bo'yicha 1-14 yoshdagi bolalar hisobga olingan

³⁾ MICS natijalari

<https://nsdq.stat.uz/uz/goal/18>


BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIDA GLOBAL SHERIKLIK DOIRASIDA AMALGA OSHIRISH VOSITALARINI MUSTAHKAMLASH VA ISHLARNI FAOLLASHTIRISH

Barqaror rivojlanish uchun global hamkorlikni mustahkamlash barcha Maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu maqsad umumiy vazifalarga erishish uchun xalqaro hamkorlikni kengaytirish, texnologiyalar almashinuvi, savdoni rivojlantirish va moliyaviy ko'makni oshirishga qaratilgan. Kambag'allikni qisqartirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirishda hukumatlar, biznes va fuqarolik jamiyatining ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari barqaror taraqqiyotni ta'minlaydi va global barqarorlikka hissa qo'shadi.


O'zbekistonda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Mamlakat BMT va uning agentliklari, xalqaro moliya institutlari va hamkor davlatlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Ekologiya, ta'lim, sog'liqni saqlash va raqamli transformatsiya sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. BRMga erishish uchun mintaqaviy hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sheriklikni kengaytirish O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rini mustahkamlaydi va mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNING

YAGONA TO'PLAMI



O'ZBEK SO'MINING AQSH DOLLARIGA NISBATAN XARID QOBILIYATI PARITETI BO'YICHA YAIM HAJMI




BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIDA GLOBAL SHERIKLIK DOIRASIDA AMALGA OSHIRISH VOSITALARINI MUSTAHKAMLASH VA ISHLARNI FAOLLASHTIRISH


17 BARQAROR
RIVOJLANISH
YO'LIDA HAMKORLIK




DAVLAT DAROMADLARINING UMUMIY HAJMINI YAIMGA NISBATI




ICHKI SOLIQLAR HISOBIDAN MOLIYALASHTIRILADIGAN MILLIY BUDJETNING ULUSHI




PUL O'TKAZMALARI HAJMINING (AQSH dollarida) YAIMGA NISBATI



TOVARLAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAN TUSHADIGAN TUSHUMLAR HISOBIDAN TASHQI QARZGA XIZMAT KO'RSATISHGA SARFLANADIGAN MABLAG' ULUSHI




KENG POLOSALI INTERNETNING STATSIONAR ABONENTLARI SONI (tezlik bo'yicha)



- 2 Mbit/sek. dan 10 Mbit/sek. gacha
- 10 Mbit/sek. dan 30 Mbit/sek. gacha
- 30 Mbit/sek. dan 100 Mbit/sek. gacha
- 100 Mbit/sek. dan yuqori

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIDA GLOBAL SHERIKLIK DOIRASIDA AMALGA OSHIRISH VOSITALARINI MUSTAHKAMLASH VA ISHLARNI FAOLLASHTIRISH

INTERNETDAN FOYDALANUVCHI AHOLINING ULUSHI



O'ZBEKISTONDA RASMIY STATISTIKANING ASOSIY TAMOYILLARIGA MUVOFIQ KELADIGAN **MILLIY**

STATISTIKA QONUNCHILIGI HAMDA TO'LIQ MOLIYALASHTIRILADIGAN VA AMALGA OSHIRILADIGAN **MILLIY STATISTIKA REJASI** MAVJUD

MILLIY BRM 17 ga ERISHISH INDIKATORLARI

	2020	2021	2022	2023	2024
Indikator 17.1.1. Davlat daromadlarining umumiy hajmini YAIMga foizdagi nisbati, manbalar bo'yicha.	22,1	22,4	22,7	19,2	18,9
Indikator 17.1.2. Ichki soliqlar hisobidan moliyalashtiriladigan milliy budjetning ulushi.	77,9	67,2	73,6	82,4	88,3
Indikator 17.3.1. Yalpi milliy daromadga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, rivojlanish va Janub-Janub hamkorligi uchun rasmiy yordam orqali kelib tushgan mablag'larining ulushi.	10,0	11,1	11,9	22,4	-
Indikator 17.3.2. Pul o'tkazmalari hajmining (AQSH dollarida) YAIMga foizdagi nisbati.	10,7	12,0	17,2	13,8	14,4
Indikator 17.4.1. Tovarlar va xizmatlar eksportidan tushadigan tushumlar hisobidan tashqi qarzga xizmat ko'rsatishga sarflanadigan mablag' ulushi.	7,0	8,1	8,4	15,3	15,0
Indikator 17.6.1. Keng polosali Internetning statsionar abonentlari soni, tezlik bo'yicha:	3,2	4,2	5,2	6,1	7,9
a) 256 kbit/sek. dan 2 Mbit/sek. gacha;	0,1	0,04	0,2	0,02	0,01
b) 2 Mbit/sek. dan 10 Mbit/sek. gacha;	2,4	1,7	1,2	0,8	0,6
c) 10 Mbit/sek. dan 30 Mbit/sek. gacha;	0,6	2,1	2,6	3,4	1,2

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIDA GLOBAL SHERIKLIK DOIRASIDA AMALGA OSHIRISH VOSITALARINI MUSTAHKAMLASH VA ISHLARNI FAOLLASHTIRISH



	2020	2021	2022	2023	2024
d) 30 Mbit/sek. dan 100 Mbit/sek. gacha;	0,1	0,3	0,8	1,02	4,31
e) 100 Mbit/sek. dan yuqori.	0,01	0,06	0,3	0,92	1,79
Indikator 17.8.1. Internetdan foydalanuvchi aholining ulushi.	71,1	76,6	83,9	89,0	93,3
Indikator 17.13.1. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yagona to'plami: ¹⁾					
a) YAIM hajmi, mlrd so'mda;	705,1	861,2	1 041,9	1 261,8	1 535,4
b) YAIMning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda;	101,6	108,2	106,1	106,3	106,7
c) aholi jon boshiga YAIM, ming so'm;	20,6	24,7	29,2	34,7	41,3
d) o'zbek so'mining AQSH dollariga nisbatan xarid qobiliyati pariteti bo'yicha YAIM hajmi: ²⁾					
jami, mlrd AQSH dollarida;	283,9	316,7	359,6	396,0	434,9
aholi jon boshiga, AQSH dollarida.	8 292,3	9 069,8	10 087,8	10 875,1	11 619,8
Indikator 17.17.1. Infratuzilma sohasida davlat-xususiy sheriklikka ajratilgan mablag'lar, mln AQSH dollarida.	-	18,5	17,8	-	15,8
Indikator 17.18.1. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni kuzatib borish uchun statistika samaradorligi ko'rsatkichi (statistika samaradorligi indeksi), indeks/dunyo mamlakatlari reytingidagi o'rni. ²⁾	67,5/80	71,1/85	74,1/79	80,3/62	-
Indikator 17.18.2. Rasmiy statistikaning asosiy tamoyillariga muvofiq keladigan milliy statistika qonunchiligining mavjudligi.	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud
Indikator 17.18.3. To'liq moliyalashtiriladigan va amalga oshiriladigan milliy statistik rejaning mavjudligi, moliyalashtirish manbalari bo'yicha.	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud

¹⁾ 2010-2017- yillar uchun joriy narxlardagi ma'lumotlar MHT-2008 uslubiyatiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilgan. 2018- yildan boshlab, yillik joriy va konseptual qayta ko'rib chiqishlar amalga oshirilgan

²⁾ Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra

<https://nsdq.stat.uz/uz/goal/19>

[illegible]

Qaydlar uchun

[illegible]

Hech kimni ortda qoldirmaslik



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

Nashr uchun mas'ul:

Ijtimoiy soha statistikasi boshqarmasi



Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63



www.nsdg.stat.uz



Tel.: +99871 202-80-70



facebook.com/uzstataxborot



e-mail: sdg@stat.uz



<https://t.me/uzstataxborot>

